e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/nx4w7336

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FAZOVIY TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHNING RAQAMLI VA AMALIY IMKONIYATLARI

Mamasaidova Muhabbat Abdusalom qizi
Farg'ona davlat universiteti, dotsent (PhD).
e-mail: muhabbatmamasaidova@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0009-0008-5141-1084

Annotatsiya.
Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda amaliy faoliyat va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Fazoviy tasavvurlarni shakllantirish jarayonida o'quvchining real predmetlar bilan bevosita harakat qilishi, ularni turli yo'nalishlarda joylashtirishi, modellashtirishi, taqqoslashi va o'zgartirishi muhim pedagogik shart sifatida yoritilgan. Tadqiqotda real predmetli faoliyat va raqamli modellashtirishni uyg'unlashtirish orqali fazoviy idrok, fazoviy tasavvur, vizual-obrazli tafakkur va fazoviy rotatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, fazoviy tasavvur, fazoviy idrok, fazoviy tafakkur, amaliy faoliyat, raqamli texnologiyalar, 3D modellashtirish, virtual modellashtirish, kengaytirilgan reallik, interaktiv topshiriqlar.

ЦИФРОВЫЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОСТРАНСТВЕННЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Мамасаидова Мухаббат Абдусалом кизи
Ферганский государственный университет, доцент (PhD).

Аннотация.
В статье с научно-теоретической точки зрения анализируются возможности использования практической деятельности и цифровых технологий для развития пространственных представлений у учащихся начальных классов. В качестве важного педагогического условия формирования пространственных представлений рассматривается непосредственная деятельность учащихся с реальными предметами, их размещение в различных направлениях, моделирование, сравнение и преобразование. В исследовании раскрываются возможности развития пространственного восприятия, пространственных представлений, наглядно-образного мышления и навыков пространственного вращения посредством интеграции практической деятельности с реальными объектами и цифрового моделирования.

Ключевые слова: начальное образование, пространственное представление, пространственное восприятие, пространственное мышление, практическая деятельность, цифровые технологии, 3D-моделирование, виртуальное моделирование, дополненная реальность, интерактивные задания.

DIGITAL AND PRACTICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING SPATIAL REPRESENTATIONS IN PRIMARY EDUCATION

Mamasaidova Muhabbat Abdusalom qizi
Fergana State University, Associate Professor (PhD).

Abstract.
This article provides a scientific and theoretical analysis of the possibilities of using practical activities and digital technologies to develop spatial representations among primary school students. Direct interaction with real objects, including positioning them in different directions, modeling, comparing, and transforming them, is considered an important pedagogical condition for the development of spatial representations. The study explores the potential for developing spatial perception, spatial representation, visual-spatial thinking, and spatial rotation skills through the integration of hands-on activities with real objects and digital modeling.

Keywords: primary education, spatial representation, spatial perception, spatial thinking, practical activities, digital technologies, 3D modeling, virtual modeling, augmented reality, interactive tasks.

Kirish. Fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni metodik imkoniyatlari bo'yicha guruhlash ularning ta'lim jarayonidagi vazifasini aniq belgilashga xizmat qiladi. Chunki har bir texnologiya o'quvchining fazoviy idrok, geometrik tasavvur, vizual-obrazli fikrlash, konstruktiv faoliyat, aqliy aylantirish, chizma va sxemani tushunish hamda modellashtirish ko'nikmalarining muayyan jihatini rivojlantiradi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida fazoviy tasavvurlarni shakllantirishda vizual-ko'rgazmali, modellashtirish, konstruktiv-amaliy, o'yin,

ISSN 3060-5059 (Online)

muammoli ta'lim, interfaol va raqamli texnologiyalarni o'zaro bog'liq holda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Vizual-ko'rgazmali texnologiyalar o'quvchilarning fazoviy idrokini faollashtirish va predmetlarning tashqi belgilari, shakli, hajmi, joylashuvi, masofasi hamda o'zaro nisbatlarini aniq obrazlar orqali anglashiga xizmat qiladi. Bu texnologiyalar tarkibida geometrik shakllar, hajmli jismlar, rangli kartochkalar, rasm, jadval, chizma, sxema, maket, xarita, piktogramma va ko'rgazmali plakatlardan foydalaniladi. Masalan, kub, shar, silindr, konus kabi jismlarni real ko'rinishda ko'rsatish o'quvchiga ularning qirralari, tomonlari, yuzalari va hajmini bevosita idrok etish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar, avvalo, shaklni tanish, hajmni farqlash, joylashuvni aniqlash, yo'nalishni tushunish va predmetlar o'rtasidagi masofani chamalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Modellashtirish texnologiyalari fazoviy tasavvurlarni real predmet, grafik tasvir va aqliy obraz o'rtasidagi bog'liqlikda shakllantirishga yo'naltiriladi. Bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar geometrik jism, maket, sxema, xarita, chizma yoki 3D ko'rinish asosida obyektning tuzilishini anglaydi, uni qayta yaratadi va yangi model hosil qiladi. Masalan, sinf xonasining oddiy planini tuzish, geometrik shakllardan uy maketi yaratish, kub yoyilmasidan hajmli jism yasash yoki berilgan sxema asosida model qurish o'quvchilarning fazoviy munosabatlarni ongli anglashiga yordam beradi. Modellashtirish texnologiyalari obyektni turli rakursda tasavvur qilish, qismlar va butunlik munosabatini anglash, chizma-sxematik fikrlash, aqliy qayta qurish va fazoviy muammoni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Konstruktiv-amaliy texnologiyalar o'quvchilarning predmetli-amaliy faoliyatini tashkil etish orqali fazoviy tasavvurlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu guruhga qog'ozni buklash, qirqish, yopishtirish, konstruktor yig'ish, LEGO, tangram, mozaika, pazl, kubiklar, plastilin, karton, somoncha yoki gugurt tayoqchalari yordamida buyum yaratish kabi faoliyatlar kiradi. Masalan, tangram bo'laklaridan hayvon tasviri hosil qilish, LEGO detallaridan ko'prik modeli qurish yoki qog'ozdan geometrik jism yasash jarayonida o'quvchi shakl, hajm, yo'nalish, nisbat va joylashuvni amaliy harakat orqali anglaydi. Mazkur texnologiyalar qismlardan butun hosil qilish, shakllarni moslashtirish, predmetning bo'lajak ko'rinishini oldindan tasavvur qilish, konstruktiv fikrlash va qo'l-harakat koordinatsiyasini rivojlantiradi.

Bugungi boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning bilim olish faoliyatini yangi mazmun bilan boyitish imkonini bermoqda. Ayniqsa, fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda raqamli muhitning imkoniyatlari alohida ahamiyatga ega. Chunki fazoviy obyektlarni ekranda aylantirish, turli tomondan ko'rish, qismlarga ajratish va qayta birlashtirish imkoniyati o'quvchiga real predmet bilan ishlashda har doim ham mavjud bo'lmagan vizual tajribani taqdim etadi.

Biroq raqamli texnologiyalarni fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishning yagona vositasi sifatida qarash maqsadga muvofiq emas. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun real predmetni ushlash, uni joylashtirish, aylantirish, yig'ish va qayta qurish kabi sensor-motor faoliyatlar ham katta ahamiyatga ega.

Shu sababli mazkur maqolada real predmetli faoliyat bilan raqamli modellashtirishni uyg'unlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotning maqsadi — boshlang'ich ta'limda amaliy faoliyat va raqamli texnologiyalardan uyg'un foydalanish orqali fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, taqqoslash, modellashtirish, topshiriqlarni loyihalash va pedagogik tajriba elementlaridan foydalanildi.

Amaliy va raqamli topshiriqlar quyidagi yo'nalishlarda guruhlashtirildi:

Yo'nalish	Amaliy topshiriq	Raqamli topshiriq
Shaklni anglash	Geometrik shakllarni ushlab ko'rish	3D shaklni aylantirish
Joylashuv	Predmetlarni turli joyga qo'yish	Virtual muhitda joylashtirish
Rotatsiya	Kub yoki shaklni aylantirish	3D obyektni 360° aylantirish
Konstruksiya	Konstruktor yordamida model yaratish	Raqamli konstruktor
Taqqoslash	Ikki modelni solishtirish	Ikki 3D modelni taqqoslash
Yetishmayotgan qism	Maketni to'ldirish	Raqamli tasvirdagi qismni aniqlash
Yo'nalish	Labirint va grafik topshiriq	Interaktiv virtual labirint

Tadqiqot jarayonida raqamli topshiriqlarni tanlashda uchta asosiy talabga e'tibor qaratildi: topshiriqning o'quv maqsadiga mosligi, o'quvchining faol ishtirokini ta'minlashi va fazoviy fikrlash operatsiyasini talab qilishi.

Tahlil natijalari real predmetlar va raqamli modellar bilan ishlashni birlashtirish fazoviy faoliyatning turli jihatlarini qo'llab-quvvatlashini ko'rsatdi.

Masalan, real kub bilan ishlash jarayonida oʻquvchi uning tomonlari, qirralari va uchlarini bevosita kuzatadi. Keyingi bosqichda shu kubning raqamli 3D modeli berilib, uni turli yoʻnalishlarda aylantirish vazifasi taklif qilinishi mumkin. Bunda oʻquvchi real tajribaga asoslangan holda virtual obyektning fazoviy holatini anglashga harakat qiladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishda interaktivlik muhim ahamiyatga ega. Oddiy tayyor animatsiyani tomosha qilish oʻquvchining fazoviy faoliyatini yetarli darajada ragʻbatlantirmasligi mumkin. Aksincha, "obyektni aylantir", "kerakli tomonni top", "modelni yigʻ", "yetishmayotgan qismni aniqlash" kabi interaktiv topshiriqlar oʻquvchini faol harakatga jalb qiladi.

Kengaytirilgan reallik texnologiyasi yordamida ikki oʻlchamli tasvirni uch oʻlchamli obyektga aylantirishga doir topshiriqlar ham tashkil etilishi mumkin. Masalan, oʻquvchi qogʻozda berilgan geometrik shaklni kameraga koʻrsatadi va ekranda uning uch oʻlchamli modeli hosil boʻladi. Keyinchalik modelni aylantirish, qismlarini aniqlash va turli nuqtayi nazardan kuzatish topshiriqlari beriladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish uchun qoʻshimcha imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, uch oʻlchamli modellar oʻquvchiga real hayotdagi predmetlarning fazoviy tuzilishini vizual ravishda kuzatish imkonini beradi.

Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanishning pedagogik samarasi avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. Oʻqituvchi raqamli topshiriqni dars maqsadi bilan bogʻlashi, oʻquvchining yosh xususiyatlarini hisobga olishi va ekran faoliyatini amaliy harakat bilan uygʻunlashtirishi lozim.

Masalan, oʻquvchi dastlab konstruktor yordamida oddiy uycha modelini yaratadi. Keyin ushbu modelning 3D raqamli koʻrinishini kuzatadi. Keyingi bosqichda modelni boshqa tomondan koʻrib, uning qaysi qismlari oʻzgarganini aniqlaydi. Yakunda esa modelning tasvirisiz uning orqa yoki yon tomonidagi tuzilishini tasavvur qiladi.

Bu yondashuv fazoviy tasavvurning faqat koʻrish asosida emas, balki faoliyat, tajriba va aqliy qayta ishlash asosida shakllanishini ta'minlaydi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishda yana bir muhim jihat — axborot xavfsizligi va raqamli madaniyatni hisobga olishdir. Oʻquvchilar raqamli vositalardan foydalanishda qurilmalarni toʻgʻri ishlatish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va internetdagi axborotga tanqidiy yondashish kabi boshlangʻich koʻnikmalarga ham ega boʻlishlari kerak.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda real predmetli faoliyat va raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini uygʻunlashtirish muhim pedagogik yoʻnalish hisoblanadi.

Real predmetlar bilan ishlash sensor-motor tajribani boyitadi, raqamli 3D modellar esa obyektlarni turli nuqtayi nazardan kuzatish, aylantirish va virtual ravishda oʻzgartirish imkonini beradi. Shu sababli ularni bir-birini toʻldiruvchi vositalar sifatida qoʻllash maqsadga muvofiq.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda amaliy faoliyat asosiy tajriba manbalaridan biridir;
2. 3D modellashtirish fazoviy obyektlarning shakli va joylashuvini turli nuqtayi nazardan anglash imkonini kengaytiradi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Uttal D. H., Meadow N. G., Tipton E., Hand L. L., Alden A. R., Warren C., Newcombe N. S. The Malleability of Spatial Skills: A Meta-Analysis of Training Studies // *Psychological Bulletin.* – 2013. – Vol. 139, № 2. – P. 352–402.URL: https://doi.org/10.1037/a0028446
2. Qodirov T., Mamatov M. *Boshlangʻich ta'limda matematika oʻqitish metodikasi.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 240 b.URL: https://ijcst.uz/index.php/journal/article/view/215
3. Mavlonov M., Xudoyberganova R. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent: Noshir, 2019. – 180 b.URL: https://ijcst.uz/index.php/journal/article/view/217
4. Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.URL: https://doi.org/10.2307/j.ctvjf9vz4
5. Newcombe N. S., Frick A. Early Education for Spatial Intelligence: Why, What, and How // *Mind, Brain, and Education.* – 2010. – Vol. 4, № 3. – P. 102–111. URL: https://doi.org/10.1111/j.1751-228X.2010.01089.x
6. Mamasaidova M. A. Boshlangʻich ta'limda fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari // *Makon va zamon.* – 2026. – № 1. – B. 132–135. https://staff.tiiame.uz/storage/users/643/articles/sUiZHDH5rENIdagMugk7hnnmuBxB3HxpbPiG3zsv.pdf
7. Mamasaidova M. A. Methodology for Forming Critical Thinking Skills in Primary Class Students // *Asian Journal of Multidimensional Research.* – 2022. – Vol. 11, Issue 12. – P. 48–55. – ISSN 2278-4853. URL: https://doi.org/10.5281/zenodo.7483222